

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

JAKUPOV GEORGIY ANDREYEVICH

**MORFONOLOGIK XUSUSIYATLAR RUS TILI FUZIONLIGINING
NAMOYON BO‘LISHI SIFATIDA**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on philological
sciences**

Jakupov Georgiy Andreyevich

Morfonologik xususiyatlar rus tilining fuzion tabiatining namoyon bo‘lishi
sifatida.....3

Жакупов Георгий Андреевич

Морфологические характеристики как проявление фузионности русского
языка25

Jakupov Georgiy Andreyevich

Morphonological Characteristics as a Manifestation of the Fusion of the Russian
Language.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

JAKUPOV GEORGIY ANDREYEVICH

**MORFONOLOGIK XUSUSIYATLAR RUS TILI FUZIONLIGINING
NAMOYON BO‘LISHI SIFATIDA**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2207 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Im Svetlana Borisovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Aliyeva Elmira Eyubovna
metodologiya bo'yicha fan doktori, dotsent

Cho'ponov Otanazar Otajonovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «4» iyun soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1232 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «20» may kuni tarqatildi.

(2026-yil «20» may dagi 5 raqamli reestr bayonnomasi)



A.A. Nosirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida fonologik va morfologik sathlar bir-biriga bog‘liqligining tabiati masalasi o‘n yillar davomida nafaqat dolzarbligini yo‘qotmagan, balki keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar doirasida ham sinxronik, ham diaxronik jihatdan alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Morfonologiyaning mustaqil lingvistik fan sifatidagi maqomi, uni mustaqil lisoniy sathga ajratish hamda morfonologik sathning lisoniy birliklari tarkibi yaqin vaqtlargacha bahsli masalalar bo‘lgani morfonologik xususiyatlarni ularning tillar tipologiyasidagi roli nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishga to‘sqinlik qilgan.

Dunyo tilshunosligida morfofonologik hodisalarni o‘rganishda klassik yondoshuvlarga qiziqishning tiklanishi bilan bir qatorda tipologik va tillararo ma‘lumotlar bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy morfofonologik tadqiqotlar ham mavjud. Ular nafaqat tillarning morfofonologik xususiyatlarini tasvirlash, balki mavjud tavsiflash usullarini aniqlashtirish va to‘ldirish imkonini beradi. Morfofonologik xususiyatlarni o‘rganishga tipologik yondashuv morfofonologik jarayonlarning universallarini ham, aniq tillarning tuzilishi bilan belgilanadigan o‘ziga xos xususiyatlarni ham aniqlash imkonini beradi.

Mamlakatimiz tilshunosligida morfonologiyaning umumiy muammolari ham, alohida tillarning morfonologik tuzilishining xususiyatlari ham faol ravishda o‘rganilgan. Morfonologiyaning maqomi va birliklariga tegishli bahsli masalalar ayni O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar doirasida hal bo‘lgan va bu o‘z navbatida morfonologik xususiyatlarni rus tilining fuzion til sifatida o‘ziga xos tipologik xususiyatlari sifatida tadqiq etishga imkon beradi. O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanning rivojlanishiga, malakali mutaxassislarni tayyorlashga katta e‘tibor qaratiladi. «Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a‘zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma‘rifat, yuksak ma‘naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va, albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma‘rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak»¹. So‘z yasalishi sohasida ham, so‘z o‘zgarishi sohasida ham morfonologik xususiyatlarni faol ravishda ketma-ket o‘rganish, morfonologik jihatdan tipologik o‘ziga xosliklarni aniqlash O‘zbekiston Respublikasining o‘quv yurtlarida rus tilini o‘rganish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Zamonaviy bosqichda xorijiy tillarni o‘qitish sifat jihatidan yangi darajaga chiqmoqda. Shu munosabat bilan bilim sifatiga talablar har doim o‘smoqda. Tillar tipologiyasi sohasida lingvistik tadqiqotlar xorijiy tillarni o‘qitish uchun kerakli ilmiy asosni ta‘minlab beradi. To‘xtovsiz o‘sib boruvchi axborot hajmi va barcha darajalarda ko‘p tilli muloqotga bo‘lgan katta ehtiyoj sharoitida tillarning muhim tipologik xususiyatlarini aniqlashga imkon beradigan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi va bu o‘z navbatida ta‘lim jarayonini yanada samarali qilishga imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fikrlariga ko‘ra, «Xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. [Elektron manba]. URL: <https://uza.uz/ru/posts/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>

kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi»².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son³, 2019-yil 8-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son⁴, 2020-yil 29-oktabrdagi «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6097-son⁵, 2020-yil 6-noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son⁶, 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son⁷ Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son⁸ va 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-son⁹, 2021-yil 19-maydagi «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5117-son¹⁰ Qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsion tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. «Fuziya» atamasi ilk bor amerikalik tilshunos E.Sepir¹¹ ishida qo'llanilgan, ammo fuzionlik hali yetarlicha aniqlik bilan belgilanmaganligiga qaramay, ko'p ma'nolilik va affiksning nostandartligi kabi fuzion xususiyatlar muhim tipologik xususiyatlar sifatida V.Fon Gumboldt¹² tasnifidayoq aniqlangan. Keyinchalik E.Sepirning g'oyalari J.Grinbergning¹³ ishlarida o'z rivojini topgan. Fuziyaning tillar tipologik tasnifidagi o'rni haqidagi masala R.O.Yakobson, F.F.Fortunatov, E.D.Polivanov, P.S.Kuznetsov, A.A.Reformatskiy, G.R.Melnikov,

² Mirziyoyev Sh.M. – Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqlari. [Elektron manba]. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/05/06/foreign-language/> (murojaat sanasi: 24.09.2023)

³ <https://lex.uz/docs/3107042>

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/4545887> (murojaat sanasi: 07.10.2024)

⁵ <https://lex.uz/ru/docs/5073449> (murojaat sanasi: 07.10.2024)

⁶ <https://lex.uz/ru/docs/5086015> (murojaat sanasi: 07.10.2024)

⁷ <https://lex.uz/ru/docs/5841077> (murojaat sanasi: 07.10.2024)

⁸ <https://lex.uz/docs/3171587> (murojaat sanasi: 07.10.2024)

⁹ <https://lex.uz/docs/3171587> (murojaat sanasi: 07.10.2024)

¹⁰ <https://lex.uz/docs/5426740> (murojaat sanasi: 07.10.2024)

¹¹ Сепир Э. Язык / Э. Сепир. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М., 1993. – С. 223-247.

¹² Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – 400 с.

¹³ Гринберг Дж. Квантитативный подход к морфологической типологии языков // Новое в лингвистике. – Вып. III. – М., 1963. – С. 60–94.

V.N.Yartseva, A.V.Shirokova, J.Buranov va boshqalarning¹⁴ ishlarida yoritilgan.

R.O.Yakobson, A.A.Abduazizov, S.B.Bernshteyn, T.V.Bulygina, N.A.Yeskova, E.A.Zemskaya, A.A.Zaliznyak, N.E.Ilyina, I.B.Itkin, V.V.Kasevich, E.S.Kubryakova, V.V.Lopatin, A.Nurmonov, M.V.Panov, V.A.Plungyan, T.V.Popova, V.A.Redkin, S.M.Tolstaya, I.S.Uluxanov, V.B.Churganova, A.G.Sheremetyeva va boshqalar¹⁵

¹⁴ Якобсон Р.О. Типологические исследования и их вклад в сравнительно-историческое языкознание. // Новое в лингвистике. – Вып. III. – М., 1963. – С. 95–105.; Фортунатов Ф.Ф. Сравнительное языковедение / Ф.Ф.Фортунатов. – Москва: Издательство Юрайт, 2023. – 165 с.; Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком / Е.Д. Поливанов. Репринт. – М., 2021. – 182 с.; Кузнецов П.С. Морфологическая классификация языков. – М.: URSS, 2022. – 112 с.; Реформатский А.А. Агглютинация и фузия как две тенденции грамматического строения слова / Реформатский А.А. Лингвистика и поэтика. – М., 1987. – С. 52–76.; Мельников Г.П. Системная типология языков: синтез морфологической классификации языков со стадийной. – М.: Изд-во РУДН, 2000. – 90 с.; Теоретические основы классификации языков мира / по ред. В.Н. Ярцевой. – М.: Наука, 1980. – 208 с.; Широкова А.В. Сравнительная типология разноструктурных языков. – М.: Добросвет, 2000. – 200 с.; Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983. – 268 с.;

¹⁵ Якобсон Р.О. Русское спряжение / Якобсон Р.О. Избранные работы. – М.: Прогресс, 1985; Абдуазизов А.О. Взаимосвязи словообразования и морфонологии. // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2015. – № 5(0). – С.40–48.; Бернштейн С.Б. Очерки славянской морфологии (чередование согласных в именных на –А). // Славянская филология. Вып. 8. – М., 1973. – С. 83–96.; Бернштейн С.Б. Очерк сравнительной грамматики славянских языков. Чередования. Именные основы. – М.: Наука, 1974. – 380 с.; Булыгина Т.В. Замечания к понятию регулярности морфонологических явлений в сфере словообразования. // Актуальные проблемы русского словообразования. – Т.1. – Ташкент, 1975. – С. 443–448.; Булыгина Т.В. Проблемы теории и практики морфонологического описания // Известия АН СССР ОЛЯ. – 1975. – Т. 34. – № 4. – С. 21–34, Булыгина Т.В. Проблемы теории морфонемного описания. К семидесятилетию А.А. Реформатского. – М.: Изв. АН СССР, Сер. лит. и яз. – 1975. – Т. 34. – № 4. – С. 328–340.; Булыгина Т.В. Тезисы Пражского лингвистического кружка. // Пражский лингвистический кружок. – М.: Прогресс, 1967. – С. 80–84.; Булыгина Т.В. Проблемы теории морфологических моделей. – М., 1977. – 287 с.; Земская Е.А. Изменения в морфонологической структуре производного слова. // Русский язык и советское общество. Словообразование современного русского литературного языка. – М.: Наука, 1968. – С. 9–65.; Земская Е.А. К проблеме множественности морфонологических интерпретаций. // Развитие современного русского языка. 1972 – М., 1975. – С. 69–88.; Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособие. // Е.А. Земская. – 9-е изд., стер. – М.: Флинта, 2016. – 325 с.; Еськова Н.А. О некоторых морфонологических явлениях современного русского языка (на материале образований с суфф. -ец от географических названий с основой на заднеязычные согласные). // Топонимастика и транскрипция. – М.: Наука, 1964. – С. 65–81.; Зализняк А.А. Русское именное словоизменение. – М.: Славянская культура, 2012. – 750 с.; Иткин И.Б. Русская морфонология. – М.: Гнозис, 2007. – 272 с.; Касевич В.Б. Морфонология. – Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1986. – 161 с.; Ильина Н.Е. Морфонология глагола в современном русском языке. – М.: Наука, 1980. – 147 с.; Ильина Н.Е. Парадигматика и синтагматика в морфонологии. // Язык: Система и подсистемы. – М., 1990. – С. 102–111.; Кубрякова Е.С. Основы морфологического анализа. – М.: Наука, 1974. – 19 с.; Кубрякова Е.С., Панкрац Ю. Г. Морфонология в описании языков. – М.: Наука, 1983. – 118 с.; Кубрякова Е.С. Морфонологические характеристики и их роль в типологическом описании языков. // Лингвистическая типология. – М., 1985. – С. 56–63.; Кубрякова Е.С. Проблемы словосложения и исследование структуры слова в современной лингвистике. // Теория грамматики. Морфология и словообразование. – М., 1992. – С.81–84.; Лопатин В.В. Морфонологические явления в словообразовании. // Русская грамматика. – Т. 1. – М.: Наука, 1980. – С. 413–421, 430–451.; Лопатин В.В., И.С. Улуханов И.С. Словообразование. // Грамматика современного русского литературного языка. – М.: Наука, 1970. – С. 37–301.; Лопатин В.В., Улуханов И.С. Словарь словообразовательных аффиксов современного русского языка. – М.: Издательский центр «Азбуковник», 2016. – 812 с.; Макаев Э.А., Кубрякова Е.С. О статусе морфологии и единицах её описания. // Единицы разных уровней грамматического строя и их взаимодействие. – М.: Наука, 1969. – С. 87–119.; Nurmonov, A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.; Панов М.В. Позиционная морфология русского языка. – М.: Наука, Языки русской культуры, 1999. – 275 с.; Попова Т.В. Славянская морфонология. – М.: Наука, 1987. – 264 с.; Редькин В.А. Акцентология современного русского литературного языка. – М.: Просвещение, 1971. – 223 с.; Редькин В.А., Сахаров А.Л. Морфонема и морфонологический словарь русского языка. // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М., 1977. – С.51–70.; Телегин Л.А. Морфонологическая структура суффиксальных производных на -ион в современном английском языке: Дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1970.; Толстая С.М. Славянская морфонология. Основные понятия, аспекты и методы: дисс. докт. филол. наук. – М., 1992.; Толстая С.М. К сопоставительному изучению славянских языков на уровне морфонологии (глагольные основы в польском и русском языках). // Теоретические и методологические проблемы сопоставительного изучения

морфологию ривожланшига о‘зининг салмоқли ҳиссасини қoшган.

Рус тилининг со‘з ясалishi соҳасидаги ҳодисаларини о‘рганishга D.Vort, L.Blumfeld, G.Glison, M.Komarek, E.Stankevich, Z.L.Xarris va boshqalar¹⁶ kabi ko‘p taniqli xorijiy olimlarning ishlari bag‘ishlangan.

Fuziyani морфологик jihatdan ko‘rib chiqishga imkon bergan морфологик ta‘rifning zamonaviy tamoyillari V.A.Redkin, S.B.Im, G.X.Bakievalarning¹⁷ asarlarida ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqot ushbu tamoyillarga rioya qiladi, lekin oldingi ishlardan farqli o‘laroq diqqat markaziga so‘zning tovushli ko‘rinishini shakllantirishda морфологик birliklarning roli emas, balki «fuziya» va «agglutinatsiya» tushinchalarining морфологик mazmuni qo‘yilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsion tadqiqot O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining «Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari» nomli ilmiy-tadqiqot ishlarining rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi rus tilida otdan yasalgan nomina agentis so‘zlarini so‘z yasalishining fuzion tabiatini ta‘riflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

rus va xorijiy tilshunosligida fuzionlik muammosiga qarashlar rivojlanishini o‘rganib, yondashuvlarni ta‘riflash;

so‘z yasalishi jarayonida hosil qiluvchi va hosila so‘zlarning aksentli, alternatsion va suffiksial xususiyatlarini tavsiflash orqali fuzion til sifatida rus tilining tipologik

славянских языков языков. – М., 1994. – С. 232–240.; Толстая С.М. Морфонология в структуре славянских языков. – М.: Индрик, 1998. – 320 с.; Чурганова В.Г. Очерк русской морфонологии. – М.: Наука, 1973. – 239 с.

¹⁶ Vort D.C. Морфонология славянского словообразования. // American contributions to the VII international congress of slavists. Warsaw. August, 21-27, 1973, Vol. I. Linguistics and poetics. The Hague-Paris. 1973. – С. 377–391.; Vort D.C. Морфотактика и морфонимика. // Актуальные проблемы русского словообразования. – Самарканд, 1972. – С. 397–403.; Vort D.C. О роли абстрактных единиц в русской морфонологии. // Развитие современного русского языка. 1972. – М.: Наука, 1975. – С. 53–68.; Bloomfield L. Minomini morphonemics. – In: TCLP. Vol. 8. – Pr., 1935. – p. 105–115.; Harris Z.L. Methods structural linguistics. – Chicago. Univ. of Chicago Press, 1951. – XV. – 384 p.; Jakobson R.O. The Phonemic and Grammatical Aspects of Language in the ir Interrelations. // «Proceedings of the Sixth International Congress of Linguists». – Paris, 1949. – P.16–18.; Komarek M. Sur l’appréciation fonctionnelles des alternances morphologiques. – In: TCLP. Vol. 1. – Pr., 1964. – P.145–161. Stankievichz. The accent patterns of the Slavic verb. // American contributions to the 6th international congress of slavists. 1968. Vol. 1. The Hague - Paris. – P.353–376.; Stankiewicz E. Studies in Slavic morphophonemics and accentology. – Ann Arbor, 1979. – P.105–108.; Haspelmath M. Understanding morphonology. – London, Arnold, 2002, pp. 180–181.; Jakobson R. Phoneme and phonology // Jakobson R. Selected writings. Phonological studies. I. s- gravenhage, 1962.; Lass R. Phonology. An introduction to basic concepts // Cambridge University Press, Cambridge, 1988.

¹⁷ Редькин В.А. Альтернации (чередования фонем). // Грамматика современного русского литературного языка. – М.: Наука, 1970. – С. 462–465.; Им С.Б. Морфонологические явления в процессе синтеза звукового облика слова. Монография. – Ташкент: VNESYINVTSTPROM, 2020. – 296 с.; Им С.Б. Типологические различия между фузионными и агглютинирующими языками // Международный Конгресс. «Языковая политика Содружества Независимых государств. 2 – 4 декабря 2019. Беларусь. г. Минск». – Минск, 2019. – С. 194–195.; Им С.Б. Морфонологические явления в словообразовании демиинутивов мужского рода // Горизонты современной русистики. Сб. статей Международной научной конференции, посвященной юбилею акад. В.Г Костомарова. (30-31 января 2020г.). – М.: 2020. – С. 315–322.; Im S.B. Significance Of Morphophonological Elements In A Nominal Word Formation As A Manifestation Of The Fusion Of The Russian Language // Journal of Critical Reviews. Vol 7, Issue 5, 2020, pp. 265–271.; Им С.Б. Значимость морфонологических явлений в словообразовании демиинутивов среднего рода // Вестник Челябинского государственного университета. 2020. – №7. – С. 63–73.; Bakieva G.H., Im S.B. Significance of morphonological phenomena in the Russian word formation as a manifestation of its fusion (on the material of diminutives of neuter gender) // Journal of Hunan University (Natural Sciences). – Vol. 48. – No. 12. – pp. 1920–1932.

belgilarini aniqlashda tilda morfonologik ta'rifning ahamiyatini isbotlash;

agglutinativ tillardan farqli o'laroq rus tilining fuzion tabiati namoyon bo'lishining o'ziga xosligini ochib berish, morfonemalarning, ya'ni urg'u, almashinuv va suffiksning rus tilining fuzion tabiatini ifodalaydigan funksional jihatdan teng qimmatli lisoniy birliklar sifatida mazmunini aniqlash;

rus tilining otdan yasalgan nomina agentis so'zlarining materialida hosil qiluvchi so'z va hosila so'zning morfonologik xususiyatlarini ichki bir-biriga bog'liqligini tadqiq etish;

rus tilining so'z yasalishi sohasida fuziya va agglutinatsiya nisbatini aniqlash, jadval, diagramma va statistik ma'lumotlar yordamida fuziyaning ustun tabiati va agglutinatsiyaning nisbiy tabiatini asoslash.

Tadqiqotning obykti sifatida rus tilida so'z yasalishining fuzion tabiatini aniqlash vositasi sifatida morfonologik xususiyatlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini otdan yasalgan nomina agentis so'zlardagi urg'u, fonemalarning almashinuvi va affiksatsiya tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni bajarish uchun dissertatsion tadqiqot doirasida sinxron-tasviriy, tipologik, qiyosiy, distributiv, oppozitiv va statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

rus tilining tipologik xususiyati bo'lgan fuziyaning morfonologik sathida suffiks allomorfni tanlash qoidalarida namoyon bo'lishi yasovchi va yasama so'zlarning aksentli, alternatsion va suffiksial xususiyatlarini tavsiflash orqali asoslangan;

rus tilining fuzion tabiatini ifodalashga xizmat qiladigan va so'zning tovushli ko'rinishi sintezi jarayonida ishtirok etadigan morfonemalarning – urg'u, almashinuv va suffiksning funksional jihatdan teng qimmatliligi rus tilining otdan yasalgan nomina agentis so'zlarining morfonologik tavsifi yordamida isbotlangan;

fuziya xodisasi rus tili so'z yasalishi jarayonida agglutinatsiyaga nisbatan ustuvor ekangligi otdan yasalgan nomina agentis so'zlarining urg'u va alternant sinflari bo'yicha taqismlanishini tahlili asosida isbotlangan;

jadval, diagramma va mikdoriy ma'lumotlarda aks ettirilgan statistik usul yordamida *мужской* va *женский* rod'dagi nomina agentis so'zlari suffikslarining bir xil bo'lmagan mahsuldorlik darajasi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

rus tilining ta'riflanmagan nomina agentis so'zlar sinfi morfonologik jihatdan tadqiq qilingan;

tadqiq qilinayotgan otlar sinfida hosila so'zlarning morfonologik turlari izohlangan;

hosila so'zning morfonologik ko'rinishini shakllantirishda suffiksning fuzion ahamiyati aniqlangan;

rus tilida nomina agentis morfonologik tuzilishining o'ziga xosligi aniqlangan;

flektiv til sifatida rus tilining fuzion xususiyatlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotning ilmiy asosi, metodologiya va metodikasi hamda yangi muammolarni aniqlash, yangi vazifalarni bajarish, rus tilining

fuzion xususiyatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalarining dissertatsion ishining nazariy asoslariga mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati rus tili fuzion tabiatining tipologik belgilarini aniqlashda morfonologik hodisalar ahamiyatining nazariy talqinini asoslash, uni o'rganishga yondashuvlarni tizimlashtirish va rus tilidagi morfonologik hodisalarni tasniflash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsion tadqiqotning natijalari oliy o'quv yurtlarda filologiya fakultetlarining o'qitish amaliyotida zamonaviy rus tili va lingvistik tipologiyadan ma'ruza va amaliyot darslarini, rus tilining morfonologiyasidan maxsus kurslarni tayyorlashda va o'tkazishda, dissertatsion ish, monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalarni yozishda hamda morfonologik lug'atlarni tuzishda qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rus tilining fuzion tabiatini ochib berish jarayonida olingan natijalar va amaliy tavsiyalar asosida:

rus tilining tipologik xususiyati bo'lgan fuziyaning morfonologik sathida suffiks allomorfini tanlash qoidalarida namoyon bo'lishi yasovchi va yasama so'zlarning aksentli, alternatsion va suffiksial xususiyatlarini tavsiflash orqali isbotlangani xususidagi ilmiy-nazariy mulohazalardan Andijon davlat universitetida 2017-2021-yillarda bajarilgan OT-F1-18 raqamli "Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-yil 26-dekabrda 31-32/7530-son ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy-uslubiy tavsiyalar asosida tadqiqot natijalarining qo'llanishi dastur va ishlanmalarning takomillashuviga xizmat qilgan;

rus tilining fuzion tabiatini ifodalashga xizmat qiladigan va so'zning tovushli ko'rinishi sintezi jarayonida ishtirok etadigan morfonemalarning – urg'u, almashinuv va suffiksning funksional jihatdan teng qimmatliligi rus tilining otdan yasalgan nomina agentis so'zlarining tahlili va tavsiflash uslubi integratsiyasi asosida isbotlanganiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasida 2021-2022-yillarda amalga oshirilgan "O'zbek harbiy san'ati tarixi" nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 10/2406-son ma'lumotnomasi). Tadqiqotning ilmiy ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarni qo'llash orqali erishilgan ijobiy natijalar loyiha doirasidagi qo'llanma va to'plamlarni yaratishda o'z aksini topgan;

fuziya xodisasi rus tili so'z yasaliishi jarayonida agglyutinatsiyaga nisbatan ustuvor ekanligi otdan yasalgan nomina agentis so'zlarining urg'u va alternant sinflari bo'yicha taqismlanishini tahlili asosida isbotlangan hamda jadval, diagramma va mikdoriy ma'lumotlarda aks ettirilgan statistik usul yordamida *мужской* va *женский* poddagi nomina agentis so'zlari suffikslarining bir xil bo'lmagan mahsuldorlik darajasi isbotlanganligi borasidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"ni takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-yil

26-dekabrda (03-12-13-5574-son ma'lumotnomasi). Natijada taklif va tavsiyalar Dasturning 35-bandini mazmunan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 13 ta respublika va xorijiy ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish nashr etilgan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, ilmiy nashrlarning ixtisoslashtirilgan bazalarida indekslanuvchi xorijiy ilmiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya asosiy matnining hajmi 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Fuziya va agglutinatsiyalarning morfonologik mazmuni**» deb nomlangan birinchi bobida «fuziya» va «agglutinatsiya» tushunchalarini aniqlashga yondashuvlar ko'rib chiqilib, morfonologik tuzilish tendensiyasi sifatida fuziyani tushinishga olib kelgan fuziyaga qarashlar evolutsiyasi kuzatilgan. Bu mustaqil lingvistik fan sifatida morfonologiyaning rivojlanishi, morfonologik birliklarning tarkibini aniqlash va zamonaviy morfonologik tavsif tamoyillarini belgilash tufayli mumkin bo'ldi.

«Fuziya» atamasining muallifligi E.Sepirga tegishli. U o'zining «Til» nomli asosiy asarida tillarning 4 ta umumiy tipologik tasnifini taqdim qilgan. Ularning ikkinchisiga batafsil to'xtaymiz, chunki «fuziya» tushunchasi ayni o'sha tasnifda ochib berilgan. Ushbu tasnifga ko'ra, E.Sepir tillarning 4 ta turini ajratmoqda: yakkalovchi (izolatsiya qiluvchi) tillar, agglutinatív tillar, fuzion tillar va simvolik (ramziy) tillar. Bu yerda yakkalovchi (izolatsiya qiluvchi) tillar Gumboldtning an'anasiga ko'ra talqin qilinmoqda. V.Fon Gumboldt fikriga binoan E.Sepir flektiv tillardan markaziy belgi sifatida ichki fleksiyaga ega bo'lgan simvolik (ramziy) tillarni va fuzion tillarni ajratib ko'rsatmoqda. E.Sepir «flektiv» atamasini «fuzion» atamasi foydasiga rad etdi, chunki fleksiya ba'zi agglutinatív tillarga ham xos bo'lishi mumkin. Shunday qilib, mazkur tasnifga ko'ra fleksiya mavjudligi bu belgilovchi tipologik xususiyat emas. E.Sepir agglutinatív tillarni fuzion tillardan farqlovchi asosiy belgi sifatida «fuziya» yangi atamasini kiritdi.

E.Sepir agglutinatsiya va fuziya orasidagi farqni o'zak morfemalarini affiksial morfemalar bilan mustahkam birligi darajasida ko'rgan. «Affiksatsiyaning bu ikki

turini «qotishtiradigan» (fuziyalovchi) va «taqqoslaydigan» deb belgilash mumkin¹⁸. Agar xohlasangiz, taqqoslash texnikasini biz agglutinatsiya deb nomlashimiz mumkin». Bundan tashqari, E.Sepir fuziyani nafaqat fuzion tillarga, balki shu jumladan agglutinativ tillarga ham xos morfologik tuzilisining tendensiyasi sifatida ajratdi. Ayni shu sababli, misol uchun, bantu tilini u agglunativ-sintetik, fransuz tilini esa fuzion-tahliliy tillar sifatida baholagan. Keyinchalik E.Sepir tillarni tahliliy, sintetik va polisintetik (uchinchi tasnif) hamda oddiy sof-relatsion, murakkab sof-relatsion, oddiy aralash-relatsion va murakkab aralash-relatsion (to'rtinchi tasnif) turlarga bo'ladigan boshqa tasniflarni ilgari surgan¹⁹. Ularning hammasining ham, ayniqsa, barcha tillarni qamrab olmaydigan va inkorporatsiyalanadigan tillarni chiqarib tashlaydigan birinchi uchtasining ham muhim kamchiligi bo'lgan. Lekin fuzion tillar tabiatini tushinish jihatidan E.Sepirning ishi shubhasiz oldinga tashlangan qadam bo'lgan.

E.Sepirning g'oyalari boshqa amerikalik tilshunos J.Grinbergning asarlarida o'z rivojini topgan. J.Grinbergning tipologik tasniflash usuli ko'p jihatdan E.Sepir tomonidan taklif qilingan tipologiyaga tayanadi, ammo «umumiy taassurotlarga tayanadigan intuitiv ta'riflarning o'rniga ushbu tasnifda ishlatiladigan har bir belgining har biri son bilan ifodalanadigan indeksni chiqarish yo'li bilan yetarlicha aniq ta'rifga ega bo'ladigan ikki birlik munosabati (mazkur indeks ushbu ikkita birlikning matn parchalarida nisbiy takrorlanish darajasiga asoslangan holda) orqali ta'riflashga harakat qilinyapti. Tasniflash asosiga E.Sepirdagi uchta belgi o'rniga beshta belgi qo'yilib u yoki bu tilning har biriga nisbatan o'rnini aniqlash uchun bitta yoki bittadan ko'p indeks qatori o'rnatiladi»²⁰.

J.Grinberg ham E.Sepir singari fuziyani morfemalar orasidagi chegaralarni o'chib ketishiga olib keladigan morfemalarning yaqin aloqasi sifatida belgilagan. Lekin fuziyaning zamonaviy tushunilishi farqlanadi. E.Sepir va ayniqsa J.Grinberg tomonidan fuziyaning talqin qilinishi mazkur tushunchaning o'ta torayib ketishiga olib keldi. Ularda fuziya ilk bor hali V.Fon Gumboldt tomonidan ko'rsatilgan muhim xususiyatlarini, ya'ni bir affiksning bir necha ma'nolarni ifodalash qobiliyati va affikslar qatori orqali bir xil ma'noni ifodalash imkoniyatini yo'qotmoqda. Keyinchalik fuziyaning tushunilishi ancha kengaygan.

«Fuziya (lotincha *fusio* – quyuv, fransuzcha *fusion* – qotishtirmoq, qo'shilmoq) bu morfemalarning ularning fonemali tarkibi o'zgarishi bilan birga sodir bo'ladigan o'zaro birikishi. Ko'proq morfemalar orasidagi chegaralarni o'chib ketishiga olib keladigan o'zgartirilayotgan o'zakni ko'pgina nostandart affikslarga yaqin morfologik birikishi sodir bo'ladi»²¹.

Ammo hattoki fuziyaning zamonaviy tavsiflari fuziya, eng avvalo, so'z o'zgarishiga xos bo'lib so'z yasashida o'z aksini topmasligiga moyil. Bunga ko'p jihatdan V.V.Lopatin va I.S.Uluxanovlarning rus tilidagi so'z yasashining

¹⁸ Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Просвещение, 1993. – С. 124.

¹⁹ Шарафутдинова Н.С. Лингвистическая типология и языковые ареалы: учебное пособие / Н. С. Шарафутдинова. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. – С. 17–25.

²⁰ Гринберг Дж. Квантитативный подход к морфологической типологии языков // Новое в лингвистике. Вып.3. – М., 1963. – С.60–95.

²¹ Розенталь, М.А. Теленкова. Словарь – справочник лингвистических терминов. – М.; Просвещение. 1985. – С. 379.

agglutinativ tabiati haqidagi fikri yordam berdi. Ularga ko‘ra, «morfonologik hodisalar – urg‘u va fonemalarning almashinuvi – mexanik yordamchi xarakterga ega»²².

Mazkur dissertatsion tadqiqotda rus tilidagi so‘z yasalishining fuzionligi isbotlanadi, chunki rus tili ham, umuman olganda, tabiatiga ko‘ra fuziondir. Rus tilidagi so‘z yasalishi fuzionligining asosiy ko‘rinishlari sifatida esa morfonologik hodisalar ta‘riflanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan ta‘riflar fuziyani tilning morfologik tuzilishi xususiyati sifatida tavsiflab oxiri morfemalarning ajratib olinuvchanligi tamoyillari va morfemik chokda (morfemalar orasidagi chegarada) fonetik hodisalar mavjudligiga keladi, ammo fuziyaning morfonologik mazmunini umuman e‘tiborga olmaydi. Bu ko‘p jihatdan morfonologik birliklarning tarkibi va xarakterini aniqlashda yetarlicha aniqlik bo‘lmaganligi oqibati bo‘lib, mazkur holat S.B.Imning so‘nggi ishlarida bartaraf etilgan²³.

So‘zning tovushli ko‘rinishi sintezi jarayonida morfonologik birliklarning o‘zaro shartlanganligi to‘g‘risidagi olingan ma‘lumotlardan kelib chiqib, S.B.Im hamma qabul qilgan ta‘birlarga qarama-qarshi bo‘lmagan, ammo «fuziya» va «agglutinatsiya» tushunchalarining mazmunini morfonologik ma‘no bilan to‘ldiradigan agglutinatsiyada morfonologik birliklarning avtonomlik belgisiga va fuziyada ularning avtonom bo‘lmasligiga asoslangan tavsif bergan. Biz o‘z ishimizda fuziyaga S.B. Im tomondan berilgan tavsifga amal qilamiz.

«Fuziya bu so‘zning tovushli ko‘rinishini qurib chiqishda urg‘u, fonemalar variatsiyasi va affiksatsiya orasidagi shunday nisbatki, unda sanab o‘tilgan elementlar va, eng avvalo, affiksatsiyaning avtonom emasligi yuzaga keladi»²⁴.

Affiksatsiya avtonom emasligining sabablari quyida tavsiflanadigan morfonologik hodisalarning mavjudligidan iborat.

Morfonologiya asoschisi unvoni haqli ravishda N.S.Trubetskoyga tegishli. O‘zining «Morfonologiyaga oid ba‘zi fikrlar» («Некоторые соображения относительно морфологии») nomli taniqli asarida u ilk bor fanga «morfonologiya» tushunchasini kiritgan. Unda slavistlarning I qurultoyida ilgari surilgan va Praga tilshunoslik to‘garagi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan ba‘zi g‘oyalar umumlashtirilgan.

Variatsiya haqidagi umumiy tassavurga N.S.Trubetskoy «morfonema» degan nom berdi. Bu yerda so‘zshakl turlarining butun majmuasi nazarda tutilgan. Almashinuv a‘zosini N.S.Trubetskoy alternant deb nomlagan.

Sandxi hodisasini N.S.Trubetskoy morfonologiyaning boshqa obyekt deb hisoblardi – bu morfema, kompozit va so‘zlar tutashgan joyda sodir bo‘ladigan fonetik o‘zgarishlar. Amalda N.S.Trubetskoy morfonologiyaning paradigmik hodisalari (morfonemalar) va sintagmatik hodisalarini (sandxi) ajratib ko‘rsatdi. Keyinchalik N.S.Trubetskoyning g‘oyalari «Projet de terminologie phonologique standardisee»da²⁵

²² Лопатин В.В., Улуханов И.С. Словообразование // Грамматика-70. – М., 1970.

²³ Им С.Б. Морфонологические явления в процессе синтеза звукового облика слова (на материале имен существительных). Дисс. D.Sc. по филол. наукам. – Ташкент, 2021. – 322 с.

²⁴ Им С.Б. Значимость морфонологических явлений во внутрикатегориальном словообразовании // XVIII Виноградовские чтения: сб. науч. ст. Междунар. науч.-практ. конф. – Ташкент – Екатеринбург: УрГЭУ, 2022. – 232 с.

²⁵ Projet de terminologie phonologique standardisee. // TCLP. Vol. 4. – Pr., 1931. – pp. 309–326.

hamda bir qator amerikalik tilshunoslar – L.Blumfeldning G.Glison, Z.L.Xarris kabi izdoshlarining asarlarida rivojlangan.

N.S.Trubetskoy morfonologiyani fonologiyani morfologiya bilan bog'laydigan bo'lim sifatida tasavvur qiladi, shuningdek u morfonologiya obyektini fonologik vositalarni morfologik jihatdan ishlatish sifatida belgilagan. N.S.Trubetskoy morfologik nazariyaning quyidagi bo'limlarini ajratgan:

«1) morfemalarning fonologik tuzilishi nazariyalari;

2) morfemik birikmalardagi alohida morfemalar duchor bo'ladigan kombinator tovushli o'zgarishlari nazariyalari;

3) morfologik vazifani bajaradigan tovushli almashinuvlar nazariyalari»²⁶.

Praga maktabi doirasida morfonologiya hech qachon mustaqil fan sifatida ko'rib chiqilmagan, chunki uning birliklari fonema va morfemalarga asoslanar edi. Bu morfonologiya nazariyasining asosiy zaif tomoni edi.

Pragaliklarning zamonaviy nuqtayi nazaridan morfonologiya asosiy (morfologik) sathga kiradigan oraliq sath bo'lib, bunda «asosiy bo'lmagan sathlar o'z birliklariga ega bo'lmaydi»²⁷.

Amerikaning morfonologiya maktablari. Deskriptiv maktabining markaziy qoidalarini L.Blumfeld belgilagan. U morfonologiyani asosiy vazifasi sifatida «har bir morfologik elementni nazariy boshlang'ich shakllarga keltirib keyin bir elementlarni boshqa elementlar bilan birga qo'shila olishi natijasida yuzaga keladigan shakl o'zgarishlarini o'rnatish»ni²⁸ taklif qildi.

Shunday qilib, morfonologiyani tavsifiy maktabiga ko'ra affikslar abstrakt va nisbatan avtonom tarzda ko'rib chiqiladi, ular duch kelgan barcha morfonologik o'zgarishlar esa affikslarning birga qo'shila oluvchanligi natijasi sifatida izohlanadi. Lekin qaysi affikslardan foydalanish va moslikni ta'minlash masalasi qo'yilmayapti. Aslida gap oldindan belgilangan fonema va morfemalar haqida ketyapti.

Deskriptiv maktab ham morfonologiyani mustaqil lingvistik fan maqomini rad etdi. Bu yo'nalishga G.Glison va Z.L.Xarrisni kiritish mumkin²⁹.

Morfonologiyada tahliliy yo'nalish. Tahliliy so'z yasaliishi morfologiyasi an'analarga boy soha bo'lib unda affiksatsiyaning urg'u va variatsiyalardan ustun kelishi tan olinadi. So'z yasaliishi mutaxassislari orasida katta hurmatga sazovor Grammatika-70 bu an'anani eng yuqori nuqtasi bo'ldi.

«So'z yasaliishi» bo'limining mualliflari V.V.Lopatin va I.S.Uluxanov morfonologiyani mustaqil bo'lim sifatida ajratishmaydi. Ular «motivatsiya qiluvchi va motivatsiyalangan so'zlar orasidagi morfologik farqlar qo'shimcha, yordamchi xarakterga ega»³⁰ deb hisoblaydi. V.V.Lopatin va I.S.Uluxanov fikriga ko'ra, «qo'shimcha, yordamchi xarakter motivatsiya qiluvchi va motivatsiyalangan

²⁶ Projet de terminologie phonologique standardisee. // TCLP. Vol. 4. – Pr., 1931. – pp. 116-117.

²⁷ Макаев Э.А., Кубрякова Е.С. О статусе морфонологии и единицах её описания. // Единицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие. – М., 1969. – С. 114.

²⁸ Bloomfield L. Minomin imorphonemics. // TCLP. Vol. 8. – Pr., 1935. –p.105.

²⁹ Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. – М.: 1967.; Harris Z.L. Methods structural linguistics. – Chicago. Univ. of Chicago Press, 1951. – XV.

³⁰ Лопатин В.В., Улуханов И.С. Словообразование. // Грамматика современного русского литературного языка. – М.: Наука, 1970. – С. 49.

soʻzlar orasidagi morfonologik farqlarga, yaʼni motivatsiya qiluvchi soʻz asosini kesib qisqartirish va uzaytirish, almanishuvlar, morflarni birga qoʻshish va urgʻu tushadigan joydagi farqqa tegishlidir. Bu formal farqlar maʼlum bir soʻz yasash usuliga tegishli boʻlgan barcha yasalma soʻzlar va soʻz yasalishi tiplari uchun majburiy emas. Ular shunchaki formant bilan birga kelib soʻz yasalishining yagona usuli vazifasini bajarmaydi. Har bir soʻz yasash affiksga soʻzning motivatsiya qiluvchi qismida qayd etiladigan va motivatsiya qiladigan soʻzlarning muayyan formal xususiyatlariga bogʻliq boʻlgan maʼlum bir morfonologik oʻzgarishlar xos»³¹.

Garchi morfonologik hodisalar tizimlashtirilmagan boʻlmasa ham suffiksatsiyada ular koʻp ishlatiladi. Soʻz yasalish tipining tavsifidan keyin fonemalar, urgʻular variatsiyasi kabi turli morfonologik hodisalar keladi³².

V.A.Redkinning morfonologik maktabi. Ilk bor neytrallashtirilishi mumkin boʻlgan differensial belgilar toʻplamiga ega boʻlgan mustaqil morfonologik birliklar mavjidliligini V.A.Redkin asoslab bergan. Uning konsepsiyasida morfonologik birlikni tushinish uchun markaziy tushuncha bu variant tushunchasidir. Muayyan qoidaga koʻra farqlanadigan maʼlum bir obyektlar variant deb hisoblanadi.

V.A.Redkinga koʻra, morfonema tushunchasi fonemalar variabelligi va urgʻu variabelligidan iborat. Biz morfonemaning differensial belgisi tushunchasini yanada batafsil koʻrib chiqamiz, chunki morfonologiyaning oʻzining doimiy belgilari yoʻqligi va buning oqibatida oʻz birliklari yoʻqligi haqida tassavur mavjud.

Morfonemalarning differensial belgilari morfonemalarni farqlashga imkon berib bunda morfonologik birliklar nafaqat fonemali tarkibga yoki aniq bir holatda boʻgʻinlar ketma-ketligiga bogʻlanmagan, balki differensial belgilarga tayanadi.

Urgʻuning morfonologik birliklari sifatida aksentli egri chiziqlar va aksentli paradigmalari ajratib olinadi.

«Aksentli egri chiziq bu mazkur soʻz turkumiga kirgan maʼlum bir soʻzlar koʻpligiga tegishli boʻlgan soʻzshakllarning urgʻulari yigʻindisi»³³. Alohida olingan soʻz soʻzshakllarining aksentli xususiyatlari yigʻindisi ushbu soʻzni kamida bitta aksentli egri chiziqqa kiritishga imkon beradi.

Aksentli egri chiziq xarakteristikasi barcha soʻzshakllardagi chekli yoki chekli boʻlmagan urgʻu yoki turli soʻzshakllardagi chekli va chekli boʻlmagan urgʻularning maʼlum bir birikmasi boʻlishi mumkin.

Morfonologiyaning rivojlanishi va urgʻu almashinuvi, fonemalar almashinuvi va affikslar allomorflarining variabelligi hodisalarini aniqlash fuziyani morfonologik jihatdan koʻrib chiqishga imkon berdi. Umumiy qabul qilingan taʼbirlarga qarama-qarshi boʻlmagan holda fuziyaning urgʻu, fonemalar variatsiyasi va affiksatsiyalarning, eng avvalo, affiksatsiyaning avtonom boʻlmashligini hisobga olgan holda soʻzning tovushli koʻrinishini qurib chiqishda yuqorida sanab oʻtilgan elementlarning nisbati sifatida tavsifi qabul qilindi. Ushbu tavsifga

³¹ Лопатин В.В., Улукханов И.С. Словарь словообразовательных аффиксов современного русского языка. – М.: Издательский центр «Азбуковник», 2016. – С. 40-41.

³² Лопатин В.В., Улукханов И.С. Коʻrsatib oʻtilgan ish. – С. 133-134.

³³ Редькин В.А. Акцентология современного русского литературного языка. – М.: Просвещение, 1971. – С. 6.

tayangan holda rus tilidagi soʻz yasashining fuzion tabiati toʻgʻrisidagi xulosaga kelish mumkin.

Dissertatsiyaning «Urgʻu boʻyicha I sinfga kiradigan hosilalarning morfonologik xususiyatlari» nomli ikkinchi bobi **-ик, -ник, -чик, -щик, -ак, -як, -няк, -ор, -ер, -ёр** va **-ир** suffiksli mujskoy roddagi hamda **-ка, -ша, -есса** va **-иса** suffiksli jenskiy roddagi nomina agentis hosilalarining aksentli va alternatsion xususiyatlarini taʼriflashga bagʻishlangan.

Mazkur bob uchun material sifatida mujskoy va jenskiy roddagi nomina agentis hosilalar xizmat qilgan. Mujskoy roddagi nomina agentis qatoriga **-ик, -ник, -чик, -щик, -ак, -як, -няк, -ор, -ер, -ёр** va **-ир** suffiksli hosilalar kiradi. Jenskiy roddagi nomina agentis qatoriga **-ка, -ша, -есса** va **-иса** suffiksli hosilalar kiradi.

Ular umumiy semantik maʼnoga ega paradigmaga kiritiladi. Ularning invarianti shundan iboratki, ular mujskoy va jenskiy roddagi harakat bajaruvchi shaxs maʼnosiga ega boʻlgan otlarni hosil qiladi. Invariant deganda obyektning barcha ketma-ket oʻzgarishlari jarayonida oʻzgarmagan holatda qoladigan xususiyatlar tushuniladi.

Urgʻu boʻyicha I sinfga kiradigan nomina agentis suffikslarini hosil qiluvchi soʻzning urgʻusi va alternantlari sinflari boʻyicha taqsimlanishini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

1-jadval.

Urgʻuning I sinf suffikslar allomorflarini tanlash jadvali

Alternantlar sinfi	Hosil qiluvchi soʻz urgʻusi sinfi			
	a	b	c	d
I	-ик, -ник, -ка	-чик, -щик, -ка	-ик, -ник	-ик, -ник
II	-ик, -чик, -ак, -як, ка	-ик, -чик	-ик, чик, -щик	-ик, -чик, -щик
III	-ор, -ер, -ёр,		-ир	-ир
IV	-ик, -чик, -ак, -як		-ак, -як, -няк	-ак, -як, -няк
VI	-ик, -чик		-ник, -есса, - иса	-ник, -есса, -иса
VIII	-ик, -чик, ка	-чик, -ка, -ша	-чик	
j	-ик, -ник, -щик	-ка, -ша	-ка, -ша	

A urgʻu sinfida **-ик, -ник, -чик, -щик, -ак, -як, -ор, -ер, -ёр** va **-ка** suffikslar boʻlishi mumkin.

B urgʻu sinfida **-ик, -чик, -щик, -ка** va **-ша** suffikslar boʻlishi mumkin.

C urgʻu sinfida **-ик, -ник, -чик, -щик, -ир, -ак, -як, -няк, -ка, -ша, -есса** va **-иса** suffikslar boʻlishi mumkin.

D urgʻu sinfida **-ик, -ник, -чик, -щик, -ир, -ак, -як, -няк, -есса** va **-иса** suffikslar boʻlishi mumkin.

Aksent boʻyicha I turga kiradigan nomina agentis. Mazkur turga **-ик, -ник, -чик,**

-щик, -ак, -як va **-няк** suffiksli nomina agentis kiradi.

-чик suffiksli nomina agentislarning paradigmatic xususiyatlari.

О‘zgarmas AP

I variant. Hosila so‘zda **A** aksentli egri chiziq hosil qiluvchi so‘z asosidagi urg‘u tushadigan bo‘g‘inga to‘g‘ri keladi; II, VI, VIII sinflarning variantlari hosil qiluvchi so‘zda va hosila so‘zda nopalatal variantlar bilan ifodalangan.

II sinf: *беседчик – беседа, обидчик – обида.*

VI sinf: *обозчик – обоз.*

VIII sinf: *плакатчик – плакат, автоматчик – автомат, канатчик – канат, лопатчик – лопата;* VIII sinf variantlari hosil qiluvchi so‘zda va hosila so‘zda palatal variantlar bilan ifodalanishi mumkin: *препаратчик – препарат, аппаратчик – аппарат, газетчик – газета.*

